

3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. TAT. O'n jildlik. O'ninchi jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.477.
4. Бертельс Е. Э. Наваи и Джамии. – М.: Наука, 1965.
5. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni ("Tazkiratul-shuaro"dan). –T.,1981. – B.88.
6. Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari. Filol.fan.dok.diss. –Toshkent, 1998. – B.87.
7. Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy. – T.: Fan, 1989. – B.13.
8. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. – Toshkent: O'zRFA nashriyoti, 1963. – B.166.
9. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1996. – B.70
10. Is'hoqov Yo. Navoiy va Xusrav Dehlaviy // Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. – T.: Fan, 1968. – B.88-98.
11. Mallayev N. Nizomiy Ganjavii. Mas'ul muharrir Hamidjon Homidiy. – T.: A.Navoiy nom. O'zbekiston milliy kutubxonasi. – T.,2015, – B.9-15.
12. Qayumov A. Hayrat ul-abror talqini. Asarlar. 1-jild, 1-kitob. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2008. –B.18
13. Турсунзода М. Весенний сад поэзии // Джамии. Избр. произв. 64 – х томах, том 1. – Душанбе: Ирфон, 1972. с. 5-6.
14. G'aniyeva S. Abdurahmon Jomiy // Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. – T.: Fan, 1966. – B.17.
15. G'afforov N. Alisher Navoiy "Xamsa"sida sufiylar timsoli. Filol.fan.nom.diss. ... avtoref. –Toshkent, 1999. – B.11
16. Shodiyev: E. Alisher Navoiy va fors-tojik adiblari. –T.: O'qituvchi, 1989. – B.18.
- 17.Shodiyev E. Alisher Navoiy va uning salaflari. – L., 1967. – B.10.
18. Кобулова Н. Erkin A'zam nasrida xarakter va maishiy hayot tasviri. T.: Общество и инновации, 2021. 2-4/S, 475-480

O'ZBEK TILI LEKSIK TARKIBIDAGI YANGI SO'ZLARNI MAXSUS LUG'AT TARKIBIDA JAMLANISHI

Botirova Adiba Erkinovna

O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada grammatik o'quv lug'atlarni yaratishda morfologiyaning o'rni, grammatik shakllar ham lingvistik tadqiqotning, ham nutqiy kompetentsiyani rivojlantirishning asosi ekanligi, o'zbek tilining o'timli va o'timsiz fe'llar, fe'l nisbatlari o'quv lug'atlari, o'quv lug'ati tarkibida yangi so'z-atamalarni qayd etilishi, o'zbek tilining o'z qatlamiga oid so'zlarning, atoqli otlarning ham nutq, muloqot tarkibida o'ziga xos o'rni va vazifasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: morfologiya, grammatik shakllar, o'quv lug'atlari, yangi so'z-atamalar, terminologiya.

ВКЛЮЧЕНИЕ НОВЫХ СЛОВ В СОСТАВ ЛЕКСИЧЕСКОГО БОГАТСТВА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В СПЕЦИАЛЬНЫЙ СЛОВАРЬ.

Аннотация: В данной статье обсуждается роль морфологии в создании грамматических учебных словарей, которые являются основой как для лингвистических исследований, так и для развития устной компетенции. Также рассматривается вопрос включения в учебные словари узбекского языка как правильных, так и неправильных глаголов, глагольных форм и грамматических конструкций, а также запись новых слов и фразеологизмов, присущих узбекскому языку, и их особое значение и функция в речи и коммуникации.

Ключевые слова: морфология, грамматические формы, учебные словари, новые слова и выражения, терминология


COMPILATION NEW WORDS IN THE LEXICON OF THE UZBEK LANGUAGE INTO A SPECIAL DICTIONARY.

Abstract: This article discusses the role of morphology in creating grammar textbooks, as well as the importance of grammatical forms for both linguistic research and the development of oral proficiency. It also addresses the inclusion of timely and timeless verbs in Uzbek language textbooks, the recording of new word assignments in textbooks, and the unique role and function of words related to the Uzbek language's own sphere in speech and communication.

Key words: morphology, grammatical forms, educational dictionaries, new word assignments, terminology.

O‘zbek tili agglyutinativ tillar oilasiga mansub, uning morfologik tarkibi biror morfologik shakl qo‘shilgandan so‘ng o‘zgaradi. O‘zbek tili milliy korpusining asosini, poydevorini ham morfologiya tashkil etadi. Shu ma’noda grammatik o‘quv lug‘atlarni yaratishda morfologiyaga, xususan, muloqot uchun nihoyatda muhim bo‘lgan ot va fe‘l so‘z turkumlari qamrab olinadi. Zero, mazkur grammatik shakllar ham lingvistik tadqiqotning, ham nutqiy kompetentsiyani rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

Ot so‘z turkumi bilan bog‘liq grammatik lug‘atlar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin bo‘ladi:



Nutq, muloqot uchun ot soʻz turkumi qanchalik muhim vazifa bajarsa, feʼllar ham undan kam boʻlmagan vazifalarni bajaradi. Oʻzbek tilining oʻziga xos xususiyatlaridan biri ham shuki, gapda koʻpincha ega tushirilib, ifodalanmay qoladi va asosiy yuk feʼl bilan ifodalangan kesimga tushadi. Shu maʼnoda, tadqiqotchi hamda oʻquvchilarning ham bu ikki mustaqil soʻz turkumiga aloqador grammatik oʻquv lugʻatiga koʻp ehtiyoj seziladi.

Feʼllar bilan bogʻliq grammatik oʻquv lugʻatlar tarkibida, xususan, oʻtimli va oʻtimsiz feʼllarning grammatik oʻquv lugʻatining oʻrni va ahamiyati katta. Shuningdek, feʼl nisbatlarini qoʻllash bilan bogʻliq muammolar ham tez-tez koʻzga tashlanadi. Shunga koʻra, oʻzbek tilining oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar, feʼl nisbatlari oʻquv lugʻatlarini dolzarb lugʻatlar sirasida koʻrsatish mumkin:

O'timli va o'timsiz fe'llar o'quv lug'ati

Fe'l nisbatlari o'quv lug'ati

Fe'l mayllari o'quv lug'ati

Leksik qatlamning oʻziga xos xususiyatlari yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar bilan ham belgilanadi. Shu bois har qanday til korpusida yangi oʻzlashma soʻzlar alohida eʼtiborni taqozo qilishi tabiiy. Oʻzbek tili leksik tarkibining yangilik tabiatini tashkil qiluvchi soʻz-atamalarni maxsus lugʻat tarkibida jamlanishi va izohlanishi ham taʼlimiy, ham tadqiqiy faoliyatning samaradorlik darajasini oshirishga hissa qoʻshishini taʼkidlash lozim. Shunga koʻra, yangi soʻzlarning oʻquv lugʻati tarkibida yangi soʻz-atamalarni quyidagicha tarzda qayd qilinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

T/r	Yangi soʻz va atamalar	Yangi soʻz va atamalar qoʻllanilgan rasmiy hujjat (nomi sanasi va raqami)	Yangi soʻz va atamalar haqida maʼlumotlar (qaysi tildan olingani, maʼnosi va uning qoʻllanish oʻrni hamda misollar)	Yangi soʻz va atamaning oʻzbek tilidagi taxminiy muqobili (taklif qilinayotgan soʻzning maʼnosi, qoʻllanish tarixi va misollar)	Oʻzbek tilida muqobili yoʻq yangi soʻz va atamaning oʻzbek tilida talaffuzi va imlo qoidalari asosida yozilishi boʻyicha talablar
1.	bodikamera	Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2021-yil 15-oktyabrdagi 645-sonli qaroriga ilova	bodi-kamera – (ingliz tilidan olingan) body camera, bodycam, body worn video (BWV), body-worn camera, wearable camera	yonkamera, oldkamera (bu soʻzni qoʻshma soʻz sifatida qoʻllash maʼqul boʻladi)	bodikamera
2.	xeshteg	Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz maʼnaviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli qarori	hashtag – ilova matnni (masalan, tvit) tasniflovchi yoki toifalarga ajratuvchi #belgisidan keyin kelgan soʻz yoki ibora	tanitma (xosbelgi)	heshteg
3.	skrinshot	Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar	screen – ingliz tilida ekran, oyna hamda shot –	qaydlavha, ekranlavha	skrinshut

		Mahkamasining “Baholovchilarga toifalar berish bo’yicha davlat xizmatlarini ko’rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to’g’risida”gi 2019-yil 24 sentyabrdagi 799-son qaroriga Ilova	fotosurat (lug’atlardagi 4- ma’nosi) so’zlarining qo’shilmasidan yasalgan so’z.		
4.	masterklass	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son farmoni	master klass – master class (ingliz tilidan olingan)	mahorat darsi	mahorat darsi
5.	QR kod	O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va bandlik munosabatlari vazirining “Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilinib, ogohlantirish muddati pullik kompensatsiyaga almashtirilganda xodimlarga moddiy madad berish tartibi haqidagi tushuntirishga o‘zgartirish	QR-kod – QR code (Quick Response code)	TJ kod, yo‘naltirma (tezkor javob kodi), xos kod	TJ kod

		kiritish to'g'risida" 2021 son 11-2021-B-son buyrug'i			
6.	tyutor	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori	tyutor – tutor – (inglizcha) ustoz, murabbiy, repetitor. Bir yoki bir necha o'quvchi bilan har kuni qo'shimcha mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi.	tarbiyachi	tarbiyachi
7.	vaksinatsiya	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 29-martdagi PQ-2857-sonli qarori	Vaksinasiya (rus tilida) – Vaccination (ingliz tilida)	emlash	emlash
8.	Veb-sayt	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ochiq ma'lumotlar taqdim etilishi hisobga olingan holda internet tarmog'ida o'zbekiston respublikasining hukumat portalini yanada takomillashtirish	Website (inglizcha)	vab sahifa	vebsayt

		chora—tadbirlari to‘g‘risida”gi 2015 yil 7 avgustdagi 232-son qarori			
9.	sayt	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020/2021 o‘quv yilida o‘zbekiston respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida 2020-yil 12-iyundagi PQ-4749-son qarori	cite(inglizcha)	elektron sahifa	sayt
10.	onlayn	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son qarori	Online (inglizcha)	virtual uchrashuv, aloqa	onlayn
11.	oflayn	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 8-sentabrdagi	Offline (inglizcha)	yuzma-yuz uchrashuv	oflayn

		544-son qarori			
12.	vebinar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent davlat agrar universitetida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 8 may, PQ-3734-sonli qarori	webinar Vebinar (onlayn trening) – bu Internet orqali ta'lim berish faoliyati (kurslar, treninglar, mahorat darslari). Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bunday o'qitish juda sodda va qulaydir.	Tarmoq orqali mashg'ulot, video muloqat, veb-anjuman (video muhokama)	vebinar

Yangi o'zlashgan so'zlarning o'quv izohli lug'ati o'quvchilarning, tildan foydalanuvchilarning mazkur so'z va atamalar haqidagi bilimi, ma'lumotlarini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilining o'z qatlamiga oid so'zlarning, atoqli otlarning ham nutq, muloqot tarkibida o'ziga xos o'zni va vazifasi mavjud. Shuning uchun o'quv lug'atlar sirasida o'z qatlamga oid lug'aviy birliklarni o'zida aks ettirgan lug'atlarning elektron shaklini yaratish va til korpuslariga integratsiya qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur turdagi lug'at uchun o'z qatlamga mansub bo'lgan kishi ismlarining quyidagi guruhlarini tavsiya qilish mumkin.

O'z qatlamga oid so'zlar o'quv lug'ati

Tuyg'una, Tuyg'unoy, Tumanboy, Tumanoy, Turdibeka, Turdibek, Turkboy, Tursunbek, Tursunoy, Tursuntoy, Tursuntosh, Turumtoy, Turumtosh, Turg'un, Turg'una, Turg'unbeka, To'ybegim, To'ybeka, To'yberdi, To'yoy, To'yliboy, To'ytemir, To'ytirak, To'yturdi, To'ychi, To'yqiz, To'lantoy, To'lanoy, To'lqinoy, To'lqin, To'lqina, To'rabeka, To'raberdi, To'rabo'l, To'ratosh, To'raxon, To'rg'ay, To'xtasin, To'xtaoy, To'xtamish, To'xtatosh, To'xtatursun, To'xtashxon, To'xtaqilich, To'xtash, To'qboy, To'qberdi, To'qoyim, To'qsari, To'qtemir, To'g'onbek, To'g'ul
Ugurboy, Ugurli, Uzboy, Uzoqoy, Uzumxon, Uzunboy, Uysunxon, Uyto'ldi, Uyto'la, Uyg'un, Uychuchuk, Ulanxon, Ulbeka, Unganoy, Ultoy, Undurboy, Uforxon, Uforoy, Ucharboy, Uchqun
Xonbek, Xonbeka, Xonberdi, Xonim, Xonimqiz, Xoneldi, Xonmengli, Xonoyim, Xonsevar, Xonsuluv, Xontemir, Xonto'ra, Xonchuchuk
Charos, Chaqirboy, Chag'atoy, Chag'ribek, Cherikboy, Chechakoy, Chintemir, Chinterak, Chintoy, Chuchukoy, Chuchukxon, Cho'lpon, Cho'lponoy, Cho'rtanboy
Egamberdi, Egambergan, Egamoy, Egamtoy, Egizboy, Egizbek, Edilboy, Elarslon, Elatboy, Elbek, Elbezar, Eltuzar, Elbeka, Elberdi, Elboy, Elbotir, Elbo'lsin, Elbuvis, Eldengiz, Elgo'zal, Elkezar, Elkeldi, Elko'mak, Elsevar, Elsuluv, Eltemir, Eltirak, Eltoy, Eltong, Eltong, Elturdi, Eltutmish, Elto'ydi,

Elto'ra, Elxon, Elchechak, Elchiboy, Elchin, Elchibek, Elchixon, Elo'g'li, Enaqiz, Eran, Erantoy, Erbek, Erboy, Erbug'a, Erbo'l, Erbo'lsin, Erbo'ta, Ergash, Ergashoy, Erdon, Erdosh, Eryigi, Erjigit, Erjon, Erka, Erkaoy Erkasuluv, Erkin, Erkina, erkinoy, Erkli, Ersari, Ertoy, Ertosh, Erto'ra, Erto'g'on, Erto'g'ul, Erxon, Ertaboy, Eson, Esonbeka, Esonbek, Esonberdi, Esontemir, Esontosh, Estoy, Eshbek, Eshbeka, Eshberdi, Eshboy, Eshbola, Eshbo'ta, Eshboy, Eshyigit, Eshxon, Eshtur, Eshtursun, Eshtosh, Eshtemir, Eshtoy, Eshturdi, Eshto'xta, Eshto'ra
Yuvoshboy, Yugurboy, Yuzbek, Yuzbeka, Yuzbosh, Yuzlibeka, Yuztoy, Yuzo'g'li, Yulduz, Yulduzxon
Yaylaboy, Yayraoy, Yayraxon, Yanaboy, Yangibek, Yangiberdi, Yangisuluv, Yangio'roz, Yarashbek, Yaxshibek, Yashin, Yashnar, Yashnaroy, Yashnaxon
O'g'toy, O'jarboy, O'jarberdi, O'zanboy, O'zbek, O'zbekoy, O'zbekoyim, O'zbekberdi, O'zgar, O'ziboy, O'ztemir, O'ktam, O'ktamxon, O'ljay, O'ljaoy, O'ljaxon, O'ljas, O'lmas, O'lmasoy, O'nbegi, O'ngal, O'rdaboy, O'rinoy, O'rmonoy, O'rozbek, O'rozbeka, O'rozboy, O'rozgo'zal, O'rozxon, O'rozqilich, O'rol, O'roltosh, O'rxon, O'stemir, O'tkir, O'tkiroy, O'taxon, O'tkirxon, O'qchi, O'g'ilbegi, O'g'iloy, O'g'ilbeka, O'g'iltoy, O'g'iltosh, O'g'iltursin, O'g'lon, O'g'onberdi
Qayirboy, Qaynar, Qaynaroy, Qaytarboy, Qaldirg'och, Qarbug'a, Qarchig'ay, Qiziloy, Qizjon, Qizlarbegi, Qizlaroy, Qizlarsuluv, Qizlarto'ra, Qizlarxon, Qilich, Qilichberdi, Qilichbek, Qilichxon, Qimsanoy, Qirjigit, Qirmizoy, Qoplombek, Qoraboy, Qorako'z, Qorasuluv, Qorategin, Qoratosh, Qorbeka, Qoryog'di, Qorbo'ta, Qorjigit, Qorjov, Qorliboy, Qorkeldi, Quvondiq, Quvonchbek, Quvonsin, Quyosh, Quyoshbek, Quyoshoy, Quyoshxon, Qunduzbeka, Qunduzboy, Quyunboy, Qushbegi, Qushtemir, Qo'ldosh, Qo'noqboy, Qo'riqboy, Qo'shbek, Qo'shinboy, Qo'shyurak
Hulkar, Hulkaroy, Hulkarboy

Tadqiqotchi I. Islomovning terminologiyaga doir yondashuvlari ham tadqiqotimiz obyekti bilan bog'liq masalalar talqinini amalga oshirishda alohida o'ringa ega. Xususan, u o'zbek tili kasb-hunar terminlari tizimining ideografik strukturasi va tarkibi, tasnifi yuzasidan quyidagilarni qayd qiladi: "Terminologik birliklar makrotizimi" ikki tizimdan: professionalizmlar mikrotizimi va ilmiy terminlar mikrotizimidan tarkib topgan. Har bir mikrotizim ham, o'z navbatida, ichki mikrotizimlarni qamrab oladi. Mazkur terminlar tizimi quyidagicha tarkib va strukturaga ega hisoblanadi:

1- Professionalizmlar mikrotizimi:

2-bosqich:

1. An'anaviy xo'jalik terminlari tizimi:
 - a) dehqonchilik terminlari tizimi;
 - b) chorvachilik terminlari tizimi;
2. An'anaviy xalq amaliy san'ati terminlari tizimi:
 - a) gilamchilik terminlari tizimi;
 - b) chevarlik terminlari tizimi;

- v) duradgorlik terminlari tizimi;
- g) temirchilik terminlari tizimi;
- d) ko‘nchilik terminlari tizimi;
- ye) kulollik terminlari tizimi;
- yo) quruvchilik terminlari tizimi;
- j) zargarlik terminlari tizimi;
- z) uysozlik terminlari tizimi (qora uy, kapa);
- i) egarchilik terminlari tizimi;
- k) yog‘och va ganch o‘ymakorligi terminlari tizimi.

3-bosqich: a) gilamchilik terminlari tizimi: - o‘rmakchilik; - gilamchilik; - to‘quvchilik;

b) chevarlik terminlari tizimi: - kashtachilik; - chizmakashlik; - yo‘rmado‘zlik;

- zehdo‘zlik; - popopchilik; - do‘ppichilik; - zardo‘zlik.

4-bosqich: -gilamchilik terminlari: gilam, sholcha, namat, julxirs, to‘qima gilam, arabi gilam, g‘ojari gilam, qo‘shquloq, xurjin, otoyil...

-do‘ppichilik terminlari: do‘ppi, tagdo‘zi qalpoq, taqya, kizak, kenjagul, andijoncha do‘ppi, Laqay do‘ppisi, lagandachi, piltachi ...;

-kashtachilik terminlari: kashta, so‘zana, yo‘rma, chok, palak, iroqi, qaviqlash, igna, islami, gulko‘rpa, joypo‘sh, zardevor, qushoyoq...

Ijtimoiy hayotning soha va jabhalari keng, fan va texnika, sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari ko‘p, ularning har biri juda ko‘plab o‘ziga xos hodisa va voqeliklarga boy, jamiyat, insoniyat, ilm-fan taraqqiyoti bilan uyg‘un holatda o‘zgarib, yangilanib, taraqqiy etib boradi”. Bu holat tilning leksik qatlamida, xususan, maxsus leksikasida ham maxsus birliklar – termin va atamalar orqali o‘z ifodasini topadi. Har bir sohaning tushuncha va hodisalarini ifodalashning birlamchi vositasi so‘z/terminlar, ular tilning leksik tizimida alohida terminosistemalarning shakllanishi va tarkib topishida eng muhim omil sifatida xizmat qiladi. Kasb-hunar terminlarining o‘quv lug‘ati bo‘lmagani sababli umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilar, sohalarga doir terminlarni yetarli darajada o‘rgana olmaydi. Shu ma'noda milliy til korpusiga mos holda kasb-hunar terminlari o‘quv lug‘atini ham tuzish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begmatov E., Ne‘matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiqi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1989. – № 6. – B . 35-40.

2. G‘iyosov S. O‘zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. – № 2. – B. 28-32.

3. Jabborov N., Ne‘matov H. Nazariy bilish metodologiyasi // O‘qituvchilar gazetasi. – Toshkent, 1989 yil 4 yanvar, 1-son, 2-bet.

4. Нафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати. (Мақтаб ўқувчилари, коллеж ва лицей талабалари учун). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 88 б.

5. Рафиқов В. Қизиқарли география. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2010. – 304 б.

6. Адизова Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2021. – 48 б.
7. Кобулова Н. Erkin A'zam nasrida xarakter va maishiy hayot tasviri. Т.: Общество и инновации, 2021. 2-4/S, 475-480
8. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлигида сатҳлараро муносабатлар: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 47 б.
9. The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer
10. B Mengliyev, S Shahabitdinova, S Khamroeva, S Gulyamova, A Botirova
11. Journal of Language and Linguistic Studies 17 (1), 558-564
12. Logical and Grammatical Relations in Word Categories: The Factor of Difference and Incarnation
13. L Raupova, A Botirova, N Musulmanova, H Kadyrova, G Safarova International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (04)
14. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING TALAFFUZ KO'NIKALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH VA Erkinovna// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 2 (16), 1-3
15. ГРАММАТИК ЛУФАТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН ШАКЛИГА СЎЗЛАРНИ ТУРКУМЛАР БЎЙИЧА ТАНЛАБ ОЛИШ ТАМОЙИЛИ: Ботирова Адиба Эркиновна, Навоий давлат педагогика институти доценти
16. АЭ Ботирова Образование и инновационные исследования международный научно-методический
17. THE PRINCIPLE OF SELECTING WORDS BY CATEGORY IN THE ELECTRONIC FORM OF MATHEMATICAL DICTIONARIES A Botirova
18. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (12), 1-11
19. Grammatik o'quv lug'atlari tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar A Botirova Til, ta'lim, tarjima 3 (5), 59-66

**“HAQIQAT” MOTIVINING FOLKLORIZMDA AKS ETISHI
(SAID AHMADNING “JIMJITLIK” ASARI MISOLIDA)**

**Tosheva Nilufar Shirinboyevna
O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti v.b. dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida juda ko'p o'rinda keladigan haqiqat motivining yozma nasrda ijodkor tomonidan folklorizmga aylantirib aks ettirishi haqida so'z boradi. “Jimjitlik” romanidagi ikki obraz misolida bu tushuncha tadqiq etildi.